



METAFORA VA UNING TIL HAMDA NUTQ DIXATOMIYASIDAGI O'RNI

Rustamova Dilfuzaxon Vohidjon qizi

Qo'qon Universiteti ta'lif kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutqimizdagi faol bo'lgan ma'no ko'chish usullaridan biri metaforaning lingvistikada namoyon bo'lishi, mataforaning tilimizda o'r ganilishi hamda uning til va nutqimizdagi o'rni, ahamiyati haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Metfora, ma'no ko'chish, metoforologiya, o'xshatish, ko'chma ma'no, nutq.*

Bugungi globallashuv davrida insonlar nutqining ravon va zalvorli bo'lishi har doimgidanda ahamiyatlari hisoblanadi. Notiqlik barcha davrlarda ham muhim bo'lib, o'z nutqini chiroyli hamda ta'sirli ifodalaydigan insonlar doimo yetakchi bo'lib kelgan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda nutqimizni boyitib unga emotsional bo'yoq va ta'sirchanlik beradigan leksik vositalar tilimizda bir qancha hisoblanadi. Ulardan keng tarqalgani deyarli barcha insonlar o'z nutqida kundalik foydalanadigan vositalardan biri metafora bo'lib, u nutqimizda eng keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan ma'no ko'chish usulidir. Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xhashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Metafora (yunoncha *metaphora*- ko'chirish) bir predmet nominining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xhashlik asosida ko'chishidir⁹ Masalan: ariqning boshi, yurtimiz quyoshi, daraxtning ko'zi....

Metaforalarni o'rganish qadimgi davrlardan buyon tilshunoslarning diqqat markazida bo'lgan mavzu hisoblanadi. Antik davrlarda metaforani olamni anglashning aloxida usuli va vositasi sifatida ko'rsatish Aristotel (shuningdek Sitseron) ga taalluqli g'oyadir.¹⁰ D. F. Sitseron, Kvintiliandan farqli ravishda, ilk marta metafora orqali buyumlar to'g'risidagi ma'lumotni aniq va ravshan yetkazish mumkinligini payqadi. Metaforaning vazifaviy mezonii o'rnida metaforaning qo'llanish maqsadlarini ko'rgan Kvintilian, "Ism yoki fe'l o'z o'rnidan u yetishmayotgan yoxud undan afzal bo'lmanan nomlar o'rniga ko'chiriladi"¹¹ deb hisoblaydi. Antik metaforologiyada metafora nom ko'chishining har qanday turi (Aristotel); metonomiyaning zidi (Kvintilian) sifatida qaralib, u nutqimizga nominativ, baxolovchi va dekorativ ma'nolar berishini tavsiflagan. Garchi Aristotelning qo'lyozmalarida referensiya, mohiyat, haqiqat tushunchalari deyarli tilga olinmagan bo'lsa ham, uning metafora va xissiy bilish to'g'risidagi konsepsiysi o'z davri hamda hozirgi davr uchun ham modernistik g'oya bo'lib qoladi.

Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnda metaforaning shakllanishi va ifodalanishi jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamli funktsional va Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnda metaforaning shakllanishi va ifodalanishi jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan

⁹ Nurmonov.A., Sobirov.A., Qosimova.N., Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T: Ilm ziyo., 2013y, 190-b.

¹⁰ Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными вХХ в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4.

¹¹ Quintilianus M. Fabius. Institutiones oratoriae. Libri duodecim. Lipsiae, 1887. (VIII, 6, 6).

keng ko'lamli funktsional va pragmatik vazifalarni o'rganish uning lingvistik holatining turli tomonlarini aniqlashni oldindan belgilab berdi:

- 1) konseptual - "metafora printsip emas. g'ayrioddiy so'z qo'llanilishi, lekin badiiy dunyoni shakllantirish usuli. U she'riy qarashlar olamining subyektiv mazmunida individual ijodiy xususiyatlarni aks ettiradi";
- 2) sintaktik - "metafora - bu so'zning qayta ko'rib chiqilgan ma'nosida ko'rsatilgan narsa bilan qandaydir o'xshashlikka asoslangan ob'ektning xususiyatlari haqidagi bayonot", "metafora – pion kabi 24 til va tafakkur birliklarida abadiy aql.
- 3) semantik - "o'xshash bo'limganning o'xshashligi, keng ma'noda qarama-qarshi bo'lgan tushunchalarni aniqlash";
- 4) poetik – "metafora – tilning orzusi, orzusi" ;
- 5) ijtimoiy - "jamoat birlashmalari tizimi".

Nutqda o'z fikrimizni bayon etish uchun tildagi barcha birliklar (tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi va gap) dan foydalanamiz. Leksik birliklar ya'ni, so'zlarni tilshunoslikning bir qismi sifatida o'rganish, so'zlarni nutqdan tashqaridagi o'z ma'nosi bilan birga ularni nutqda ifodalagan uslubiy ma'nolarini ham o'rganish zaruriyatini ko'rsatadi. So'zlarni o'z ma'nosi bilan birga ko'chma ma'noda qo'llash ham nutq ifodalilagini ta'minlash uchun tunganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko'chma ma'no emotsiyal-ekspressiv bo'yoq dorlik kasb etadi. Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylilik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi.

Metaforalarga juda yaqin yana bir vosita bu o'xshatishdir. O'xshatish ham ko'chma ma'no ustiga qurilishi bilan metaforalarga o'xshash bo'lib, ular yordamida shaxs va predmetlar bir-biriga o'xshatiladi.

Masalan: Adashgan it kabi, Furqat qayon borgun bilolmasman.

Lekin o'xshatishlarda metaforalardan farqli o'laroq -dek, -day, -simon, -vash, - namo, kabi, singari, yanglig¹², misoli, o'xshash kabi vositalar qo'llaniladi. Masalan: Ulug'bek – yurtimiz quyoshi. (metafora)

Ulug'bek misoli quyosh. (o'xshatish)

Agar adabiyotshunoslikda ham metafora va o'xshatishni bir-biridan farqlaydigan bo'lsak, metafora istiora san`atini hosil qiladi, o'xshatish esa, tashbeh san`atini hosil qiladi.

Ko'chma ma'no biror so'z leksik ma'nosi referenti bilan obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat, belgi yoki sezgi kabilardan biri aloqador yoki munosabatda bo'lganligi uchun, uning nomida atalib ketishi orqali yuzaga keladi. Ya'ni so'z leksik ma'nosi ikkinchi bir leksik ma'noni hosil qiladi. Shu sababli keyingi leksik ma'no metafora deb ataladi¹².

¹² Xaytboyeva.M., "XARAKTER-XUSUSIYAT ASOSIDAGI METAFORALARNI O'RGATISH USULLARI" BMI.-T.;2018.7-B.

So‘zlearning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi, ular ifodalagan ikkinchi bir leksik ma’nolar to‘g‘risida juda ko‘plab olimlar jumladan, prof. M.Mirtojiyev va I.Shukurov, Z.Tohirov, D.Xo‘jayeva; shuningdek, prof. Sh.Rahmatullayev va R.Yunusovlar chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Metaforalar boy tasvirlarni va tasvirlangan narsaning his-tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ular bitta fikrni yoki butun umr tajribasini yorqin ifodalashlari mumkin. Garchi ko‘pchilik tilshunoslar ularni “shunchaki obrazli” deb rad qilgan bo‘lsalar ham, bugungi kunda ular so‘zlovchi idrokining o’ta to‘g‘ri tavsifi sifatida qabul qilinadi. Muammolarimiz, his-tuyg‘ularimiz, istaklarimiz, munosabatlarimiz - biz uchun eng muhim narsalar haqida gapirganda, tajribamizning chuqurligi va murakkabligini tasvirlash uchun metaforadan foydalanish ehtimoli ko‘proq.

Jorj Lakoff va Mark Jonsonning aqlni kengaytiruvchi "Biz yashayotgan metafora" kitobida ular shunday deydilar:

"Metaforaning mohiyati bir turdagи narsani boshqasi nuqtai nazaridan tushunish va boshdan kechirishdir."

Bizga bir qancha sabablarga ko‘ra bu oddiy ta’rif yoqadi. Birinchidan, u metafora tajribaning muhim mohiyatini qamrab olishini tan oladi. Misol uchun, bizning mijozimiz o‘z holatini shunday ta’riflaganida: "Men kislorodsiz suv havzasidagi oltin baliqdek havoga chiqishga majbur bo‘ldim", deganida, uning behudalik hissi va yaqinlashib kelayotgan halokat hissi bir zumda ayon bo‘ldi. Ikkinchidan, ta’rif metafora o‘zimizni, boshqalarni va atrofimizdagi dunyonи tushunishning markazida bo‘lgan faol jarayon ekanligini tan oladi. Uchinchidan, bu metafora og‘zaki ifodadan ko‘ra ko‘proq bo‘lishiga imkon beradi. Metafora imo-ishoralar, tovushlar, predmetlar va tasvirlar orqali ham noverbal tarzda ifodalanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, odam nima desa, qilsa, ko‘radi, eshitadi, his qiladi yoki tasavvur qilsa, boshqa tajribani ifodalovchi metafora bo‘lish potentsialiga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak metaforalarning tilimiz va nutqimizdagi o‘rni juda muhim hisoblanadi. Biz metaforasiz gapira olmaymiz. Biz metaforasiz o‘ylay olmaymiz. Va biz hech qachon metaforasiz ongli mavjudotlarga aylanmagan bo‘lardik. Metaforalar nutqimizni boyitadi o‘z fikrimizni teranroq va ta’sirchanroq qilib ifodlashimiz uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Nurmonov.A. , Sobirov.A., Qosimova.N., Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T: Ilm ziyo., 2013y,190-b.
- 2.Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4.
- 3.Quintilianus M. Fabius. Institutiones oratoriae. Libri duodecim. Lipsiae, 1887. (VIII, 6, 6).
4. Xaytboyeva.M., “XARAKTER-XUSUSIYAT ASOSIDAGI METAFORALARINI O‘RGATISH USULLARI” BMI.- T.;2018.7-B.v



5. Jung, Karl, Inson va uning ramzlari, Pikador, London, 1964 yil.
6. Lakoff, Jorj va Jonson, Mark, Biz yashayotgan metaforalar, Chikago universiteti matbuoti, 1980 yil.